

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

on the theme " *Architecture is the Abode of Time* "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University

ARCHITECTURE OF PROTECTIVE WALLS

Ph.D, Doctoral student of Samarkand State University
of Architecture and Construction
Yunusov Alisher Shukhratovich


Annotatsiya. Ushbu maqola Qadimgi Xorazmning mudofaa inshootlari va himoya devorlari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Me'morchilik, Xorazm, mudofaa, Shaxriston, , qal'a, devor, shaharsozlik, minora, istehkomlar.

Xorazm mudofaa inshootlari avvalo uzoq vaqt faoliyat olib boradigan qilib qurilgan. Bunda esa avvalo binoga joy to'g'ri tanlanishiga alohida e'tibor berilgan. Tekislikda qurilgan mudofaa inshootlari tepalikdagi mudofaa inshootidan farqli o'laroq albatta suv to'ldirilgan handaq bilan o'rab olingan. Tashqariga chiqish uchun maxsus ko'priklar barpo etilgan. Bundan tashqari tashqi devor yana qo'shimcha devor bilan o'rab olingan. Bu avvalo xavfsizlik uchun amalga oshirilgan.

Oqshaxonqal'a shahristoni: 1956-yilda ochilgan (Andrianov,1969,135-bet),1982 va 1985- yillari tadqiqot ishlari olib borilgan. Olib borilgan izlanishlar natijasida ushbu shahriston miloddan avvalgi IV-III asrlar va milodiy III asrlarga tegishli deb topilgan. Shahriston ikki qismdan Yuqori shahar va Past shahar qismidan iborat. Past shahar kvadratsimon tarxda bo'lib, burchaklari olamning to'rt tarafiga yo'nalgan. Yuqori shahar past shahar devori konturiga mos bo'lib, butun shimoliy burchagini, maydonning taxminan to'rtidan bir qismini band qilgan. Tarxi kvadrat shaklda bo'lgan shahristonning burchak tomonlari taxminan olamning to'rt tomoniga qaratilgan, maydoni 380x340m. Qal'ning tashqi paxsa devorlari va burjlari shaxmat tarzida joylashgan nayzasimon shinaklar bo'lgan. Oqshaxonqal'a tashqi devorining qurilishi taxminan milodiy I asrga "Xorazm taqvi" joriy etilgan vaqtga to'g'ri keladi.

Devkesgan shahristoni: ko'hna Urganchdan 60 km g'arbda, Ustyurt platosi janubiy-sharqiy chuqirligidagi tor burun chekkasida joylashgan. Shahriston tarxi to'g'ri burchak shaklida, 260x730 metr o'lchamda. Shahar devorlari bo'ylab bir-biridan 5-28 metr masofada joylashgan to'g'ri burchakli, ikki qavatli, burchaklarida esa kvadrat shakldagi burjlar bo'lgan. Qal'aga sharqiy devor o'rtasidagi ikki burjdan iborat peshdarvoza inshooti bilan himoyalangan joydan kirilgan. Shaharga janub tomonidan pandus orqali kiriladigan joy ham bo'lgan Shaharning janubiy-g'arbiy burchagida qal'a joylashgan. O'tkazilgan tadqiqot ishlariga ko'ra shahar taraqqiyoti ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqichda Devkesganning uchala tomoniga devor olingan. Devor paxsadan iborat bo'lib ustiga kvadrat shakldagi xom g'isht terilgan. G'isht puxta terilib, ularga tamg'a bosilgan. Devor bilan birga, unga bog'lab xom g'ishtdan bir-biridan 25-27 m masofada joylashgan to'g'ri burchakli burjlar ham ko'tarilgan. Butun perimetr bo'ylab devorlar orasida eni 1,7 m li berk yo'lak o'tgan. Burjlardagi shinaklar ikki qator bo'lgan, pastki qatordagilari nayzasimon qilib, tepa qatordagilari esa to'g'ri ochilgan, o'zaro shaxmat tarzida joylashgan. Ikkinchi qurilish davrida harbiy istehkomlar yaxshilab qaytadan qurib chiqilgan. Shahristonning shimoliy va sharqiy taraflaridan yangi qal'a devori ko'tarilgan, natijada burjlarning turtib chiqqan joylari kamaygan, yon devoridagi shinaklar qisman berkitilgan, o'tish yo'lakalari alohida berk bo'laklarga aylanib qolgan. Shahristonning shimoliy devorida yarim oval shaklidagi yangi burjlar qurilib, natijada avvalgilari o'zining dastlabki funksiyasini yo'qotgan. 1- rasm (G'ayratjon Xodjaniyazov qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari 160- bet)



51-расм. Девкесган ғови. Бош тарҳи: а) Уст-юрт жануби-шарқий чиқиғи тарҳи; б) I—ғовнинг шарқий адоғидаги қалъа, II—ғовнинг ғарбий адоғидаги қалъа, III—ибодат билан боғлиқ иншоот (эхтимол); IV—қўмондонлик пункти; ғов кесмаси, (а—б) ғов орқали кесма

Toshxirmon yodgorligi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani hududida, Oqshaxonqal‘a shahristonidan 6 km janubi-sharqda joylashgan. Yodgorlik shimoldan janubga qarab cho‘zilgan 100x150 m ga yaqin o‘lchamli do‘nglikdan iborat. Balandligi 3-5 metr. Ushbu inshoot yigirmadan ortiq har xil xonalardan iborat. Qurilish materiali sifatida xom g‘isht ishlatilgan. Ushbu g‘ishtlarga bir yoki ikki yondosh chiziqlar ko‘rinishidagi tamg‘a bosilgan. Devorlar 1 metrdan 1,5 metrgacha qalinlikda bo‘lgan. Ushbu manzilgoh taxminan kech arxaik va qanxa davrlarda mavjud bo‘lgan manzilgoh deyish mumkin.

Ichon qal‘a. Qadimiy davrda hududi 26 gektardan iborat ushbu shahar cho‘ziq to‘g‘ri burchak shaklida. Paxsa asos ustiga g‘ishtdan qo‘shdevor ko‘tarilgan. Devor burjlari to‘g‘riburchak shaklida, qal‘a burchaklarida esa kvadrat shaklda bo‘lgan. Shahar devori atrofida keng handaq qazilgan. Qadimgi qal‘a mil. avv. V-IV asrlar oxiri, IV-III asrlarda shunday ko‘rinishga ega bo‘lgan. 1985-yilda shahristonning janubiy-sharqiy burchagida qazish ishlari olib borildi va u “III qazishma” deb belgilab qo‘yilgan. III qazishmaga ko‘ra, mil. avv. V-IV asrlar bo‘lag‘asida Ichon qal‘aning eng qadimgi qal‘a devori shaharning keyin qurilgan devoriga qaraganda birmuncha ichkaridan o‘tgan ma‘lum bo‘ldi. Qal‘a devori tarxi to‘g‘riburchak shaklda, bir-biridan 22-27 m masofada joylashgan burjlar bilan kuchaytirilgan. Ushbu burjlar esa milodiy I-III asrlarda qaytadan tiklangan.

Tashqi alomatlarini hisobga olib mudofaa inshootlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

I-shahar ko‘rinishidagi istehkomli manzilgohlar;

II – qal‘alar va qo‘rg‘onlar;

III-istehkomli ibodat inshootlari;


IV-istehkomli binolar yoki harbiy qal‘alar;

V-uzun devorlar.

1. SHahar tipidagi istehkomli inshootlar-maydoni 5 gektardan 70 gektargacha bo‘lgan yirik istehkomli manzilgohlar. Bular- Ko‘zaliqir-25 gektar, Qal‘aliqir-70 gektar, Oqshaxonqal‘a-56 gektar, Bozorqal‘a-33 gektar, Ichon qal‘a-Xiva -26 gektar, Devkesgan-20 gektar, Xazorasp-10 gektar, Tuproqqal‘a-17 gektar va h.k.
2. Qo‘rg‘onlar uch turga bo‘linadi: 1) qo‘shdevorli, o‘tish yo‘lagi devor yuzasida burjlari bo‘lgan qo‘rg‘onlar (Qal‘aliqir 2, Ayozqal‘a 1, Govurqal‘a1, Karapas va h.k.), 2) qo‘shdevorli, biroq burjlari bo‘lmagan qo‘rg‘onlar (Jonbosqal‘a, Qal‘ajiq, Govurqal‘a 2, Burliqal‘a, Qoratepa va h.k.), 3) o‘tish yo‘lagi va burjlari bo‘lmagan qo‘rg‘onlar (Oqchagelin, Oqchungul va h.k.).
3. Istehkomli ibodatxona inshootlariga Qo‘yqirilganqal‘a, Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Tuproqqal‘a va Toshxirmon kiradi.


4. Istehkomli binolar yoki harbiy qal'alar: Tuproqqal'a^{III}, Oqtepa, Anqaqal'a, Qizilqal'a, Devkesgan va boshqalar.
5. Uzun devorlar: Devkesgan g'ovi va Oqshaxonqal'a tashqi devori uzun devorlar toifasiga kiradi va Xorazm harbiy arxetekturasida o'ziga xos hodisa hisoblanadi.

Qadimgi Xorazm mudofaa istehkomlarida qal'a devorlarining mudofaa xususiyatini kuchaytirish uchun boshqa usullar ham qo'llanilgan, misol uchun devor atrofi qo'shimcha devor bilan o'rab olingan. Qal'alar devorlari ba'zan tashqaridan bir xil masofada joylashgan plyastrlar bilan bezatilgan. Bundan tashqari burjlar mudofaa devorining muhim elementi hisoblangan. Mil.avv. IV-III asrlarda Xorazmda ikki turdagi burjlar keng qo'llanilgan. Xorazm ilk shaharsozligida Ko'zaliqir shahrida shinaklar ham mavjud bo'lib, u paxsada bir-biridan 2 metr masofada ochilgan va qavat darajasida shaxmat tartibida joylashgan. Qadimgi Xorazmning ba'zi qal'alarida shinakalar va tuynuklardan tashqari toqlar ham saqlanib qolgan. G'ishtlar burchak ostida yotqizilgan. Asosiy printsiplarga ko'ra yarim doira yoki ellipsoid shaklidagi gumbazlar, o'q otish uchun baland boshpanalarga ega mudofaa inshootlari tizimi, kichik boshpana devorlari, darvozalarda himoya qilish uchun "labirintlar", kvadrat yoki to'rtburchaklar minoralar qurilgan¹. Anqaqal'ani bunga misol qilishimiz mumkin. 2- rasm



16-рasm. Қизилқалъа тарҳи деталлари: а) шинак кесмаси; б) туйнукнинг кириши; с) туйнукнинг чиқиши; д) шимоли-ғарбий девордаги пиястрлар

Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари



81-рasm. Бурчаклар ҳимояси: а) Жонбосқалъа; б, с, и) Қўрғошинқалъа; д) Бозорқалъа; е) Оқшaxonқалъа; ф) Тупроққалъа; г) Анқақалъа; ҳ) Хивадаги Тупроққалъа; ж) Катта Қирққизқалъа

¹ Tolstov S. P. Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi izidan. - M.: Nauka, 1948 yil.84-102-betlar.

Tipologik nuqtai nazardan, Kangyuy davrining mudofaa inshootlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. relyef bilan bog'langan tartibsiz tuzilishli inshootlar,
2. to'rtburchaklar
3. yumaloq tuzilishlar.

Burchak minoralari bilan himoyalanmagan mudofaa inshootlarida zaif joylar bo'lmasligi uchun qal'alar ba'zan oval yoki yumaloq shakllarda qurilgan. Ushbu turdagi sxemalar harbiy va diniy vazifalar bilan bog'liq. Masalan, Kichik qal'ada Harbiy vazifa nuqtai nazaridan Qirkkizqal'aning oval sxemasi talab qilingan. Qo'yqirilg'alda esa doiraviy tartib ko'proq diniy vazifa bilan bog'langan. Shunday qilib, ko'rinib turibdiki, qadimgi Xorazmning gullab-yashnagan davridagi shahar va aholi punktlarini rejalashtirishda ibtidoiy jamoa , qabilaviy tuzum, shuningdek, harbiy (mudofaa) yoki diniy tuzumlarga muvofiqlik belgilari vazifalar saqlanib qolgan².

² Xo'janiyozov G'. Kadimgi Xorazm mudofaa inshotlari. - T . O'zbekiston, 2007. 70-71-betlar.